

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR
VAZIRLIGI, O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI YOSHLAR SIYOSATI VA SPORT
VAZIRLIGI, O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MUDOFAA VAZIRLIGI,
O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI ICHKI ISHLAR VAZIRLIGI,
O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MILLIY GVARDIYASI,
O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI FAVQULODDA VAZIYATLAR VAZIRLIGI,
O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MADANIYAT VA TURIZM VAZIRLIGI,
O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOG‘LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI,
O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MUDOFAASIGA KO‘MAKLASHUVCHI
“VATANPARVAR” TASHKILOTI MARKAZIY KENGASHI HAMDA
O‘ZBEKISTON YOSHLAR ITTIFOQI MARKAZIY KENGASHINING
QO‘SHMA QARORI**

**“Tinchligimiz, taraqqiyot va farovonlik uchun!” shiori ostida
“Ko‘pkurash” harbiy-vatanparvarlik sport musobaqasini
tashkil etish va o‘tkazish to‘g‘risida**

O‘zbekiston Respublikasining “Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida”gi Qonuni hamda Davlat rahbarining 2020-yil 30-oktabrdagi “Sog‘lom turmush tarzini keng tadbiq etish va ommaviy sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6099-son farmoni ijrosini ta‘minlash maqsadida Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, Yoshlar siyosati va sport vazirligi, Mudofaa vazirligi, Ichki ishlar vazirligi, Milliy gvardiya, Favqulodda vaziyatlar vazirligi, Madaniyat va turizm vazirligi, Sog‘liqni saqlash vazirligi hamda O‘zbekiston yoshlar ittifoqi Markaziy Kengashi **qaror qiladi**:

1. Yoshlarning ta‘til davrida bo‘sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish, ularni harbiy-vatanparvarlik, milliy an‘ana va qadriyatlarimizga hurmat ruhida tarbiyalash hamda ma‘naviy yetuk va jismonan sog‘lom, barkamol avlodni voyaga yetkazish maqsadida professional ta‘lim muassasalari o‘quvchi-yoshlari o‘rtasida “Tinchligimiz, taraqqiyot va farovonlik uchun!” shiori ostida uch bosqichli (*tuman-shahar, viloyat, respublika*) “Ko‘pkurash” harbiy-vatanparvarlik sport musobaqasi (*keyingi o‘rinlarda - musobaqa*) o‘tkazilsin.

2. Musobaqani tashkil etish va o‘tkazish bo‘yicha Nizom 1-ilovaga, tashkiliy qo‘mita tarkibi 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Musobaqani yuqori saviyada tashkil etish va o‘tkazishga qaratilgan belgilab berilgan vazifalar ijrosini tegishliligi bo‘yicha vazirlik va idoralar hamda ularning quyi tizimlaridagi tashkilotlar o‘z muddatida sifatli ta‘minlash choralari ko‘rsin.

4. Ushbu qo‘shma qaror imzolangan kundan e‘tiboran kuchga kiradi.



**Yoshlar siyosati va sport
vaziri o‘rinbosari**

Sh.Maxmudov

18.01.23
2023-yil *18* iyul



**Oliy ta‘lim, fan va
innovatsiyalar vazirining
birinchi o‘rinbosari**

K.Karimov

26.07.23
2023-yil *17* iyul

Ichki ishlar vaziri o'rinbosari
A.Ikramov
40
2023-yil "17" iyul

Mudofaa vaziri o'rinbosari
X.Karshiyev
113
2023-yil "17" iyul

Favqiodda vaziyatlar vaziri o'rinbosari
X.Alibayev
72
2023-yil "17" iyul

Milliy gvardiya qo'mondoni o'rinbosari
S.Mamayusupov
22
2023-yil "17" iyul

Sog'liqni saqlash vaziri o'rinbosari
E.Basitxonova
03-157
2023-yil "17" iyul

Madaniyat va turizm vaziri o'rinbosari
B.Axmedov
05-15-27
2023-yil "17" iyul

O'zbekiston Respublikasi mudofaasiga ko'maklashuvchi "Vatanparvar" tashkiloti Markaziy Kengashi raisi
X.Batirov
11.325
2023-yil "17" iyul

O'zbekiston yoshlar ittifoqi Markaziy Kengashi raisi v.b.
T.Poyonov
11.325
2023-yil "17" iyul

**“Tinchligimiz, taraqqiyot va farovonlik uchun!” shiori ostida
“Ko'pkurash” harbiy-vatanparvarlik sport musobaqasining
NIZOMI**

I. UMUMIY QOIDALAR

1. Ushbu Nizom O'zbekiston Respublikasining “Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida”gi Qonuni hamda Davlat rahbarining 2020-yil 30-oktabrdagi “Sog'lom turmush tarzini keng tadbqiq etish va ommaviy sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PF-6099-son farmoni ijrosini ta'minlash, yoshlarning ta'til davrida bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tkazish hamda harbiy-vatanparvarlik, milliy an'ana va qadriyatlarimizga hurmat ruhida tarbiyalash, ma'naviy yetuk va jismonan sog'lom, barkamol avlodni voyaga yetkazishga qaratilgan **“Tinchligimiz, taraqqiyot va farovonlik uchun!”** shiori ostida 3 bosqichli (*tuman-shahar, viloyat, respublika*) Respublika **“Ko'pkurash” harbiy-vatanparvarlik sport musobaqasini** (*keyingi o'rinlarda musobaqa deb yuritiladi*) o'tkazish tartibini belgilaydi.

2. Musobaqa yoshlarni vatanga sadoqat, milliy an'ana va qadriyatlarimizga hurmat ruhida tarbiyalash, ma'naviy yetuk va jismonan sog'lom, barkamol avlodni voyaga yetkazish, ular o'rtasida sog'lom turmush tarzini targ'ib etish va yoshlarni bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish hamda buyuk sarkardalarimizning jasorati, ulug' ajdodlarimizning boy ma'naviy merosi, yaqin va uzoq o'tmishda xalqimiz ko'rsatgan matonat va fidoiylik, yangi O'zbekistonimiz va milliy armiyamizdagi izchil islohotlarni yoshlarning keng qatlamlariga yetkazish maqsadida sektorlar kesimida professional ta'lim muassasalari o'quvchilari o'rtasida o'tkaziladi.

3. Musobaqalarni tashkil etish O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, Yoshlar siyosati va sport vazirligi, Mudofaa, Ichki ishlar, Favqulodda vaziyatlar vazirliklari, Milliy gvardiya, Sog'liqni saqlash, Madaniyat va turizm vazirliklari, hamda O'zbekiston Yoshlar ittifoqi Markaziy Kengashi tomonidan amalga oshiriladi.

4. Musobaqalarni o'tkazishda tashkiliy qo'mita umumiy rahbarlik qiladi.

II. MUSOBAQANING MAQSAD VA VAZIFALARI

Musobaqaning asosiy maqsad va vazifalari quyidagilardan iborat:

- yoshlar ongiga “Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida”gi qonun va boshqa me'yoriy hujjatlarning mazmun-mohiyatini singdirish hamda davlat tomonidan ularga ko'rsatilayotgan har tomonlama g'amxo'rlikni targ'ib qilish;
- yoshlarning ta'til davrida bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tkazish;
- yoshlarda vatanparvarlik tuyg'ularini kamolga yetkazish, ularni o'z xalqiga, Prezidentiga va Vatanga sadoqat ruhida tarbiyalash;
- buyuk sarkardalarimizning jasorati, ulug' ajdodlarimizning boy ma'naviy merosi, yaqin va uzoq o'tmishda xalqimiz ko'rsatgan matonat va fidoiylik, yangi O'zbekistonimiz va milliy armiyamizdagi izchil islohotlarni yoshlarning keng qatlamlariga yetkazish;

- o'sib kelayotgan yosh avlodda vatan oldidagi sadoqat burchini shakllantirish;
- yoshlar orasida vatan himoyasi sharaflı burch ekanligini targ'ib qilish, O'zbekiston Respublikasi Qurollı Kuchlari tarkibida xizmat qilishga tayyorlab borish;
- yoshlarda mardlik, jasurlik, shijoat, jasorat, qat'iyat, kuch-g'ayrat, intizom, jamoatchilikka tayanish va boshqa tuyg'ularni shakllantirish;
- yoshlarni muntazam ravishda sport va bilim olish bilan shug'ullanishlarini ta'minlash.

III. JAMOALARNI SHAKLLANTIRISH

Musobaqa ishtirokchilari har bir tuman-shaharlarning professional ta'lim muassasalari o'quvchilaridan iborat jamoalarni shakllantirish, hududiy oliy ta'lim, fan va innovasiyalar boshqarmalari, Yoshlar ittifoqining hududiy Kengashlari, tomonidan amalga oshiriladi.

Hududlaridagi barcha professional ta'lim muassasalari o'quvchilaridan iborat jamoalar tuziladi. Har bir jamoa a'zolari **8 nafar** bo'lib, ular **16 yoshdan 30 yoshgacha** bo'lgan o'quvchilar tarkibida tuziladi, ularning ichidan sardorlar saylanadi. Sardor jamoa a'zolariga boshchilik qiladi.

Musobaqaga kelib-ketish (*transport*) masalalari tuman-shahar va hududiy hokimliklari tomonidan ta'minlanadi.

IV. MUSOBAQADA QATNASHISH TARTIBI

Musobaqada 16-30 yoshdagi professional ta'lim muassasalari o'quvchilari qatnashish huquqiga ega. Musobaqa qatnashchilari **8 nafar** ishtirokchilardan tashkil topgan jamoadan iborat bo'ladi. Ta'lim muassasalarining harbiy o'qituvchilari va 1 nafar murabbiy mas'ul hisoblanadi.

Musobaqada qatnashuvchi jamoa a'zolari tashkiliy qo'mitaga quyidagi hujjatlarni taqdim qiladi:

- shaxsini tasdiqlovchi hujjat (pasport);
- ishtirok etuvchi jamoalar a'zolari ta'lim muassasasida o'qishi tasdiqlangan talabnoma (muhrlangan);
- sog'ligi to'g'risidagi shifokorni ruxsati xususida tibbiy ma'lumotnoma;
- barcha ishtirokchilar maxsus kiyimda bo'lishi kerak.

Talab qilingan yuqoridagi hujjatlarni topshirmagan yoki hujjatlarida kamchiligi mavjud jamoalar musobaqalarda ishtirok etmaydi.

Jamoalarning musobaqalarda qatnashish to'g'risidagi talabnomalari tashkiliy qo'mitalar belgilagan muddatlarda qabul qilinadi. Belgilangan muddatlardan kechikkan jamoalar talabnomalari qabul qilinmaydi.

Jamoalarning respublika final bosqichida qatnashishi uchun talabnomalar **22-avgustga** qadar qabul qilinadi.

Talabnomaga jamoa a'zolari va ularga hamrohlik qiluvchilarning to'liq ro'yxati (*8 nafar ishtirokchi, ta'lim muassasasining harbiy o'qituvchisi va 1 nafar murabbiyi*) ilova qilinadi va ta'lim muassasalari direktorlari tomonidan tasdiqlanadi.

Talabnomada ko'rsatilmagan shaxslar harbiy qism va musobaqa o'tkaziladigan hududlarga kiritilmaydi.

Musobaqa shartlarini baholashda hakamlar faoliyatiga aralashgan jamoa a'zolari va murabbiylar jarima ballari bilan jazolanadi.

V. MUSOBAQANI TASHKIL ETISH VA O'TKAZISH TARTIBI

Musobaqani tashkil etish va o'tkazish tashkiliy qo'mita tomonidan belgilanadi.

Musobaqani o'tkazish muddatlari:

- birinchi bosqich (*tuman-shahar*) **2023-yilning 20-iyul, 5-avgust** kunlari;
- ikkinchi bosqich (*hududiy*) **15-20-avgust** kunlari;
- respublika bosqichi **25-avgust** kuni o'tkaziladi (*musobaqa o'tkazish joyi va kuni tashkilotchilar tomonidan belgilanadi*).

Musobaqalarning o'tkazilishi oldidan ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlar orqali e'lon qilib boriladi.

Musobaqa shartlari belgilangan qoidalar asosida o'tkaziladi.

Musobaqa to'rt bosqichda o'tkaziladi:

I-bosqich musobaqalari har bir tuman-shaharlarda joylashgan professional ta'lim muassasalarining 16-30 yoshdagi o'quvchilaridan shakllantirilgan jamoalar o'rtasida tuman-shahar tashkiliy qo'mitasi (*tuman-shahar hokimlari, sektor rahbarlari, Mudofaa, Ichki ishlar, Favqulodda vaziyatlar vazirliklarining quyi tizimlari, Milliy gvardiya tuman-shahar bo'limlari, ta'lim muassasalari direktorlari, Mudofaaga ko'maklashuvchi "Vatanparvar" tashkilotlari, Sog'liqni saqlash hamda Madaniyat va turizm bo'limlari*) rahbarligida tashkil etiladi va o'tkaziladi.

II-bosqich tuman-shaharlarda o'tkazilgan musobaqada birinchi o'rinni qo'lga kiritgan jamoalar o'rtasida o'tkaziladi va hududiy tashkiliy qo'mita (*Qoraqalpog'iston Respublikasi, Toshkent shahar va viloyat hokimlari, sektor rahbarlari, Mudofaa, Ichki ishlar, Favqulodda vaziyatlar vazirliklarining hududiy boshqarmalari, Milliy gvardiya hududiy boshqarmalari, Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining hududiy boshqarmalari, hududiy Mudofaaga ko'maklashuvchi "Vatanparvar" tashkilotlari, Sog'liqni saqlash hamda Madaniyat va turizm boshqarmalari*) rahbarligida tashkil etiladi va o'tkaziladi.

III-bosqich Qoraqalpog'iston Respublikasi, Toshkent shahar va viloyatlarda o'tkazilgan musobaqalarda birinchi o'rinni qo'lga kiritgan jamoalar o'rtasida o'tkaziladi va Respublika tashkiliy qo'mita (*O'zbekiston Yoshlar ittifoqi Markaziy Kengashi, Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, Yoshlar siyosati va sport vazirligi, Mudofaa, Ichki ishlar, Favqulodda vaziyatlar vazirliklari, Milliy gvardiya qo'mondonligi, Sog'liqni saqlash hamda Madaniyat va turizm vazirliklari*) rahbarligida tashkil etiladi va o'tkaziladi.

Musobaqani rasmiy tantanali ochilish marosimi **2023-yilning 20-iyul kuni (namunali tarzda)** Qoraqalpog'iston Respublikasi, Toshkent shahar va viloyatlarda o'tkaziladi. Ochilish marosimini hamkor tashkilotlar rahbarlari va tashkiliy qo'mita vakillari hamda tuman-shahar jamoalari a'zolari ishtirokida viloyat hokimlari va sektor rahbarlari ochib beradi. Tashkiliy qo'mita vakillari tomonidan tuman-shahar jamoalari nomlari ko'rsatilgan holda Nizom talablari asosida o'tkaziladi.

VI. MUSOBAQA SHARTLARI VA BAHOLASH MEZONLARI

Musobaqaning tuman-shahar bosqichlari 5 ta shart asosida o'tkaziladi.

1. Tezkor savol- javob bahsi.

Ushbu shart savol-javob tarzida o'tkaziladi va jamoaning barcha a'zolari ishtirok etadi. Hakamlar hay'ati a'zosi tomonidan O'zbekiston tarixi, huquq, geografiya, adabiyot, sport va siyosiy savodxonlik hamda O'zbekiston yoshlar ittifoqi faoliyatiga oid savollar 1 daqiqa ichida o'qiladi va ushbu vaqt mobaynida savollarga jamoa a'zolarining javob berishlari talab etiladi.

Hakamlar hay'ati tomonidan jamoaning bergan javoblari baholanadi. To'liq javob uchun 2 ball, to'liq bo'lmagan javob uchun 1 ball, noto'g'ri javob uchun 0 ball qo'yiladi.

(Mazkur shart bo'yicha Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi mas'ul).

2. "AKM" avtomatini qismlarga ajratish va yig'ish.

Mazkur shartda har bir jamoaning 2 nafar a'zosi ishtirok etadi. 1-ishtirokchi avtomatni noto'liq qismlarga ajratadi, 2-ishtirokchi noto'liq qismlarni yig'adi. Shart hakamlar hay'atining barcha a'zolari tomonidan kelishilgan holda 5 ballik tizimda baholanadi. Shartni eng qisqa vaqtda bajargan jamoaga eng yuqori ball, shartni eng uzoq vaqtda bajargan jamoaga eng past ball beriladi.

(Mazkur shart bo'yicha Mudofaa vazirligi va "Vatanparvar" tashkiloti mas'ul).

3. "Turnikka tortilish".

Ushbu shartda jamoaning 2 nafar a'zosi ishtirok etadi. Shart ishtirokchilarining turnikdagi jami tortilishi va sonlari yozib boriladi hamda qo'shgan holda umumiy son chiqariladi. Shart hakamlar hay'atining barcha a'zolari tomonidan kelishilgan holda jamoaning turnikdagi jami tortilgan umumiy soni asosida baholanadi.

(Mazkur shart bo'yicha Yoshlar siyosati va sport vazirligi mas'ul).

4. Estafeta yugurish (4x200).

Ushbu shartda jamoaning 4 nafar a'zolari ishtirok etadi. Har bir ishtirokchi 200 metr masofaga yugurib keyingi ishtirokchiga estafeta tayoqchasini yetkazib beradi, navbatdagi ishtirokchilar estafeta tayoqchasini olib yuguradi. Shart hakamlar hay'atining barcha a'zolari tomonidan kelishilgan holda jamoalar a'zolarining marraga yetib kelgan vaqti bilan baholanadi.

(Mazkur shart bo'yicha Yoshlar siyosati va sport vazirligi mas'ul).

5. Pnevmatik quoldan o'q otish.

Bu shartda pnevmatik sport quolidan qo'zg'almas nishonga qarata o'q otish mashg'uloti bajariladi. Bunda har bir ishtirokchiga ko'nikma xosil qilish uchun 3 tadan va baho uchun 10 tadan nishon marrasiga o'q otish imkoniyati beriladi. Jamoalarning 2 nafardan a'zolari ishtirok etadi, nishonlar 15 metr masofaga o'rnatiladi. Ishtirokchilar nishondagi belgilangan marralar bo'yicha to'plagan ballari asosida hakamlar tomonidan baholanadi.

(Mazkur shart bo'yicha "Vatanparvar" tashkiloti mas'ul).

Musobaqaning hududiy va respublika bosqichi 5 ta shart asosida o'tkaziladi.

1. Tezkor savol- javob bahsi.

Ushbu shart savol-javob tarzida o'tkaziladi va jamoaning barcha a'zolari ishtirok etadi. Hakamlar hay'ati a'zosi tomonidan O'zbekiston tarixi, huquq, geografiya, adabiyot, sport va siyosiy savodxonlikka oid savollar 1 daqiqa ichida o'qiladi va ushbu vaqt mobaynida savollarga jamoa a'zolarining javob berishlari talab etiladi.

Hakamlar hay'ati tomonidan jamoaning bergan javoblari baholanadi. To'liq javob uchun 2 ball, to'liq bo'lmagan javob uchun 1 ball, noto'g'ri javob uchun 0 ball qo'yiladi.

(Mazkur shart bo'yicha Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi mas'ul).

2. "AKM" avtomatini qismlarga ajratish va yig'ish.

Mazkur shartda har bir jamoaning 2 nafar a'zosi ishtirok etadi. 1-ishtirokchi avtomatni noto'liq qismlarga ajratadi, 2-ishtirokchi noto'liq qismlarni yig'adi. Shart hakamlar hay'atining barcha a'zolari tomonidan kelishilgan holda 5 ballik tizimda baholanadi. Shartni eng qisqa vaqtda bajargan jamoaga eng yuqori ball, shartni eng uzoq vaqtda bajargan jamoaga eng past ball beriladi.

(Mazkur shart bo'yicha Mudofaa vazirligi va "Vatanparvar" tashkiloti mas'ul).

3. Kamondan o'q otish.

Har bir jamoaning 1 nafar a'zosi 15 metr masofaga o'rnatilgan nishon to'sig'iga kamondan 3 marotaba o'q otib, nishondagi belgi marralari bo'yicha ball yig'adi va uning natijasi asosida jamoa hisobiga umumiy ball yoziladi.

(Mazkur shart bo'yicha Milliy gvardiya mas'ul).

4. Harbiy biatlon.

Mazkur shartda jamoaning 5 nafar a'zosi ishtirok etadi. Bunda jamoaning 1 nafar a'zosi boshlang'ich start chizig'idan 100 metr masofaga 4 dona to'siq (baryer) orqali yugurib o'tadi, keyingi ishtirokchi 50 metr masofada 1 dona o'q-dori qutisini (20 kg) belgilangan marraga ko'tarib boradi. So'ngra, navbatdagi start maydonida kutib turgan 2 nafar ishtirokchi yarador bemorni maxsus ko'tarish vositasiga (nosilka) yotqizgan holda 50 metr masofada harakatlanadi va keyingi startdan beshinchi ishtirokchi 50 metr masofaga GAZ-3309 avtomashinasi shinasini (45 kg) marraga ko'ndalangiga dumalatib finishga borgan holda shartni yakunlaydi. Hakamlar hay'ati tomonidan jamoa a'zolarining ushbu harakatlarni ketma-ketlikda to'g'ri bajarganligi va ohirgi marraga yetib kelgan vaqti bilan baholanadi.

(Mazkur shart bo'yicha Mudofaa, Favqulodda vaziyatlar, Yoshlar siyosati va sport hamda Sog'liqni saqlash vazirliklari mas'ul).

5. Arqon tortish.

Ushbu shartda jamoaning barcha a'zolari ishtirok etadi, arqonning (kanat) teng o'rta qismiga belgi qo'yiladi va arqon tortish maydoniga jamoalarni ajratib

turish uchun chiziq tortiladi. Shart boshqaruvchi hakamning ko'rsatmasiga asosan, jamoa arqon tortishga tayyorlanadi va hakamning buyrug'iga muvofiq musobaqa boshlanadi. Musobaqa sharti bo'yicha jamoaning barcha a'zolarini o'zlari turgan tomonga maydon markazidagi chiziqdan to'liq o'tkazganda, o'sha jamoa g'olib deb topiladi.

Har bir bellashuv sharti bo'yicha baholash natijasida eng yuqori ball to'plagan jamoa g'olib bo'ladi. Agar natijalar teng bo'lib qolsa, yana bir nafardan ishtirokchilar mashqni bajaradi, so'ngra ballari hisoblanib yakuniy ko'rsatkichga ko'ra g'olib jamoa aniqlanadi.

Guruhlarning barcha shartlar bo'yicha bilim-zakovati, tezkorligi, epchilligi, shartni to'g'ri bajarganligi va belgilangan vaqtga qat'iy rioya qilishlari - baholashning asosiy mezonini hisoblanadi.

Musobaqa shartlarini baholash hamda g'oliblar va boshqa ishtirokchilarni taqdirlash tashkiliy qo'mita tomonidan tuziladigan hakamlar hay'ati tomonidan amalga oshiriladi.

(Mazkur shart bo'yicha Yoshlar siyosati va sport vazirligi mas'ul).

VII. JAMOA RAHBARLARI, MUSOBAQA ISHTIROKCHILARI VA HAKAMLAR MAJBURIYATI

Jamoa rahbarlari, musobaqa ishtirokchilari, hakamlar ushbu Nizom talablariga amal qilishlari va yuqori tartib-intizom, tashkilotchilik, hakamlar va tomoshabinlarga hurmat namunalarini ko'rsatishlari shart. Shu bilan birga, jamoa a'zolari sport etikasi, xususan, bellashuvda xushxulqlik va ahloq qoidalariga rioya etishlari lozim.

Musobaqalar paytida ishtirokchi jamoalar uchun bir xil sharoit yaratiladi va g'olib jamoa halollik prinsiplari asosida aniqlanadi. Bunda raqib jamoani va hakamlarni hurmat qilish qat'iy talab etiladi.

Musobaqa qatnashchisi tartibsizlik qilsa yoki o'zini boshqa jamoa a'zolari va hakamlarga nisbatan yomon tutsa unga ogohlantirish e'lon qilinadi, qayta takrorlangansa u musobaqadan chetlashtiriladi. Agar musobaqa qatnashchisi qoidani qo'pol darajada buzsa, ogohlantirilmasdan musobaqadan chetlashtiriladi.

O'tkaziladigan musobaqa turi buyicha ishtirokchi jamoa a'zolarida savol tug'ilib qolsa, ular shu turni o'tkazuvchi musobaqa hakamiga murojaat qilishi mumkin. Agar javobdan kanoatlanmasa, musobaqaning bosh hakamiga yoki uning o'rinbosarlariga murojaat qilishi mumkin.

Jamoa rahbarlari hakamlar faoliyatiga aralashish huquqiga ega emaslar va ishtirokchilarning maydonda hamda undan tashqarida bo'lgan vaqtlaridagi xatti-harakatlariga javobgar va mas'uldir.

Musobaqa ishtirokchilari transportlarda, dala maydonlarida harakatlanganda, shartlarni bajarish davomida xavfsizlik qoidalariga, shuningdek, musobaqa o'tadigan harbiy qism kun tartibiga qat'iy rioya qilishlari shart.

Ishtirokchilar musobaqa o'tkaziladigan harbiy qism (*musobaqa o'tkaziladigan joylar*) hududida belgilangan tartib-qoidalarga amal qilishlari, shuningdek, harbiy qismdagi jihozlarga ziyon yetkazmasliklari talab etiladi.

Jamoa a'zolari tomonidan musobaqa Nizomida ko'rsatilmagan hatti-harakatlarni amalga oshirishlari taqiqlanadi.

Jamoaning xavfsizligini ta'minlashga guruh murabbiylari hamda guruh rahbarlari mas'ul va javobgardir.

VIII. TARTIB-INTIZOM CHORALARI

Musobaqaga vaqtida yetib kelmagan jamoa musobaqada ishtirok etishi etmasligi hakamlar hay'ati tomonidan ko'rib chiqiladi.

Musobaqa qaydnomasiga kiritilmagan ishtirokchilar musobaqada qatnashganligi aniqlansa, jamoaga mag'lubiyat yoziladi.

Norozilik bildirgan jamoa e'tiroznomasida keltirilgan vajlarni isbotlash uchun, e'tiroz bildirgan yoshlar jamoalari va rahbarlarining hujjatlari hududiy (respublika) tashkiliy qo'mitaga taqdim etilishi lozim. Taqdim qilingan hujjatlar belgilangan tartibda rasmiylashtirilgan bo'lishi kerak.

Musobaqa paytida kelib chiqqan muammolarni bosh hakam va hakamlar Kengashi bartaraf etish huquqiga egadir.

Nizomning bandlari buzilgan jamoalar hududiy (respublika) tashkiliy qo'mita qaroriga asosan qaysi bosqichda bo'lishidan qat'iy nazar musobaqadan chetlashtiriladi.

IX. VAZIFALAR TAQSIMOTI

Musobaqaning bosh tashkilotchilari ushbu musobaqalarni yuqori saviyada o'tkazish uchun quyidagi vazifalarni amalga oshiradi:

- yoshlar o'rtasida o'tkaziladigan Respublika "Ko'pkurash" harbiy-vatanparvarlik sport musobasining ustidan amaliy rahbarlik qilish uchun tashkiliy qo'mita tuziladi va uning tarkibiga tashkilotchilarning vakillari kiritiladi;
- tashkiliy qo'mitalar tomonidan joylarda shtab faoliyati yo'lga qo'yiladi;
- musobaqaning natijalari to'g'risida tashkiliy qo'mitalar o'zidan yuqori turuvchi shtabga axborot beradi;
- musobaqaning har bir bosqichi o'tkazilganligi to'g'risida tuzilgan bayonnomalar shtabga musobaqa o'tgandan keyin bir kun muddatda taqdim etilishi kerak.

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi:

- ta'til vaqtlarini mazmunli o'tkazish maqsadida o'quvchi yoshlarni musobaqa bosqichlariga keng jalb etish va jamoalar ishtirokini ta'minlash;
- musobaqa bosqichlarida jamoalar uchun mas'ullar birlashtirish;
- musobaqada jamoa a'zolarini maxsus kiyim (*forma*) va anjomlar bilan ta'minlash;
- "Tezkor savol - javob bahsi" sharti uchun test savollarini tayyorlash;
- hakamlik qilish uchun malakali mutaxassislarni jalb etish;
- musobaqa bosqichlarida faol ishtirok etgan ishtirokchilarga tashakkurnoma ajratish.

O'zbekiston Respublikasi Mudofaa, Favqulodda vaziyatlar vazirliklari:

- musobaqaning barcha bosqichlariga o'quvchi yoshlar jamoalarini harbiy tayyorgarligini tashkil etish;
- musobaqaning tegishli shartlarida zarur anjomlar bilan ta'minlash hamda hakamlik qilish uchun malakali mutaxassislarni jalb etish;

- musobaqaning ochilish va yopilish marosimlarida ko'rgazmali chiqishlar hamda saf yurishlarini tashkil etish;

O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi:

- musobaqaning ochilish va yopilish marosimlarida saf yurishlarini tashkil etish;

- musobaqa ishtirokchilari uchun ajratilgan avtotransport vositalarini yo'l-patrul xizmati avtomashinalari yordamida kuzatish yuzasidan tegishli chora-tadbirlarni amalga oshirish;

- musobaqa va ommaviy tadbir o'tkaziladigan joylarda jamoat tartibini saqlash.

O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi:

- musobaqaning tegishli shartlarida (Kamondan otish) zarur anjomlar bilan ta'minlash hamda hakamlik qilish uchun malakali mutaxassislarni jalb etish;

- musobaqaning ochilish va yopilish marosimlarida ko'rgazmali chiqishlar hamda saf yurishlarini tashkil etish;

- musobaqa va ommaviy tadbir o'tkaziladigan joylarda jamoat tartibini saqlash.

O'zbekiston Respublikasi Yoshlar siyosati va sport vazirligi:

- musobaqaning barcha bosqichlariga o'quvchi yoshlar jamoalarini jismoniy tayyorgarligiga ko'mak berish;

- musobaqada hakamlik qilish uchun malakali mutaxassislarni jalb etish;

- musobaqaning tantanali ochilish va yopilish tadbirlarida sportchilarni yakka va guruh tarkibida ko'rgazmali chiqishlarini tashkil etish;

- musobaqaning tantanali yopilish marosimida Osiyo, jahon, olimpiada chempionlarini jalb etish va boshqa tashkiliy masalalarni amalga oshirish.

O'zbekiston Respublikasi Madaniyat va turizm vazirligi:

- musobaqaning tantanali ochilish va yopilish marosimlari ssenariysini tuzish;

- musobaqa o'tkaziladigan joylarda ovoz kuchaytirish vositalarini shartnoma asosida ta'minlash;

- musobaqaning tantanali ochilish va yopilish marosimlarini tashkil etish uchun boshlobchilar, tajribali rejissyor, taniqli estrada yulduzlari, teatr aktyorlarini belgilangan tartibda (shartnoma asosida) jalb etish".

O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi:

- musobaqa o'tkaziladigan joylarda tibbiy xizmat ko'rsatishni tashkil etish hamda tibbiyot xodimlarini jalb etish.

O'zbekiston Respublikasi mudofaasiga ko'maklashuvchi

"Vatanparvar" tashkiloti

- musobaqaning barcha bosqichlariga o'quvchi yoshlar jamoalarini harbiy tayyorgarligini tashkil etish;

- musobaqaning tegishli shartlarida zarur anjomlar bilan ta'minlash;
- musobaqaning ochilish va yopilish marosimlarida ko'rgazmali chiqishlar bilan ishtirok etish;

O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi:

- musobaqaning barcha bosqichlari uchun maxsus e'lonlar va roliklar tayyorlab doimiy uzatib borish;
- musobaqaning barcha bosqichlarini yoritish uchun muhbir va operatorlarni jalb etish hamda o'tkazilgan musobaqa jarayonlarini keng doirada mahalliy va respublika telekanallarda namoyish etilish.

O'zbekiston Yoshlar ittifoqi Markaziy Kengashi:

- musobaqani yoshlar o'rtasida keng targ'ib etish va ijtimoiy tarmoqlar orqali e'lon berish;
- musobaqa barcha bosqichlarida hakamlik qilish uchun malakali mutaxassislarni jalb etish;
- musobaqaning hududiy va Respublika bosqichlari o'tkaziladigan joylarni bayramona bezatish va boshqa tashkiliy masalarni amalga oshirish;
- musobaqaning tantanali ochilish hamda yopilish marosimlarida "KO'PKURASH" harbiy-sport musobaqasi logotipi tushirilgan maxsus futbolka va kepklar ajratish;
- musobaqaning barcha bosqichlari yuzasidan monitoring olib borish;
- o'tkazilgan musobaqaning barcha bosqichlari yuzasidan yakuniy hisobot tayyorlash.

X. MOLIYALASHTIRISH VA G'OLIBLARNI TAQDIRLASH

Musobaqa bosqichlarida ishtirokchi jamoalar yo'l haqi, ovqatlanish, maxsus kiyimlari, sport musobaqalari o'tadigan joylarni targ'ibot materiallari bilan ta'minlanadi va g'olib jamoalar rag'badlantiriladi.

Respublika "Ko'pkurash" harbiy-vatanparvarlik sport musobaqalarining g'olib va sovrindorlari tuman-shaharlar, hududiy hamda Respublika tashkiliy qo'mitasining I, II va III darajali diplom, medal, ko'chma kubok, pul mukofotlari va esdalik sovg'alari bilan mukofotlanadilar.

Xususan,

Tuman-shahar bosqichida g'olib bo'lgan jamoalarga;

1- o'rin uchun maishiy texnika 10 dona, I darajali diplom 1 dona, medal 10 dona va keyingi bosqichga o'tish uchun yo'llanma;

2- o'rin uchun maishiy texnika 10 dona, II darajali diplom 1 dona, medal 10 dona;

3- o'rin uchun maishiy texnika 10 dona, III darajali diplom 1 dona, medal 10 dona;

4- o'rin uchun sport anjomlari, har bir ishtirokchiga.

Ushbu bosqich uchun sarf-xarajatlar tuman-shahar "Yoshlar daftari" jamg'armasi va hokimliklarining mahalliy budjet mablag'lari hamda homiylik mablag'lari hisobidan qoplanadi.

Viloyat bosqichida g'olib bo'lgan jamoalar:

1- o'rin uchun 10 million so'm, maishiy texnika 10 dona, I darajali diplom 1 dona, medal 10 dona va keyingi bosqichga o'tish uchun yo'llanma;

2- o'rin uchun 7 million so'm, maishiy texnika 10 dona, II darajali diplom 1 dona, medal 10 dona;

3- o'rin uchun 5 million so'm va maishiy texnika 10 dona, III darajali diplom 1 dona, medal 10 dona;

Ushbu bosqich uchun sarf-xarajatlar hududiy "Yoshlar daftari" jamg'armasi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Bazirlar Kengashi, hududiy hokimliklarining budget mablag'lari hamda homiylik mablag'lari hisobidan qoplanadi.

Respublika bosqichida g'olib bo'lgan jamoalar:

1-o'rin uchun 100 million so'm, I darajali diplom 1 dona, medal 10 dona va 1 dona ko'chma kubok;

2-o'rin uchun 70 million so'm, II darajali diplom 1 dona, medal 10 dona;

3-o'rin uchun 50 million so'm, III darajali diplom 1 dona, medal 10 dona;

Musobaqaning Respublika bosqichda talab etiladigan barcha sarf-xarajatlar O'zbekiston yoshlar ittifoqi Markaziy Kengashi mablag'lari hisobidan qoplanadi.

XI. YAKUNIY QOIDALAR

Musobaqani ko'taringki ruhda o'tkazish uchun Nizomni imzolovchi vazirlik va idoralarning tegishli tashkilot va boshqarmalari zimmasiga Nizomda belgilangan vazifalar bajarilishi ta'minlansin.

“Tinchligimiz, taraqqiyot va farovonlik uchun!” shiori ostida professional ta’lim muassasalari o’quvchi yoshlari o’rtasida o’tkaziladigan Respublika «Ko’pkurash» harbiy-vatanparvarlik sport musabogasini o’tkazadigan manzilari hamda qatnashadigan jamoalar to’g’risida

MA’LUMOT

1. _____ tuman(shahar)

№	Professional ta’lim muassasasi nomi	Jamoa nomi	Murabbiyning I.F.O tel. raqami	Tuman(shahar) bosqichini o’tkazish joyi va vaqti	Biriktirilgan HQ komandiri I.F.O tel. raqami
1					
2					
3					
4					
5					
6					
7					
8					
9					
10...					

"KELISHILDI"

DXX (hudud nomi) bo'yicha boshqarmasi

boshlig'i _____

20.07.2023 yil

"TASDIQLAYMAN"

O'zbekiston yoshlar ittifoqi

(hudud nomi) Kengashi

raisi _____

20.07.2023 yil

(Hudud nomi)dan Respublika "Ko'pkurash" harbiy vatanparvarlik sport musobaqasida hududiy bosqichda ishtirok etadigan professional ta'lim muassasalari jamoalari to'g'risida

MA'LUMOT

T/R	PROFESSIONAL TA'LIM MUASSASALARINING NOMI	MURABBIYNING F.I.O	MURABBIY TELEFON RAQAMI	MUSOBAQA ISHTIROKCHISINING I.F.Sh	TUG'ILGAN SANA, OY VA YILI	GURUHI	ISHTIROKCHINING TELEFON RAQAMI
_____ tumani (shahar)							
1							
2							
3							
4							
5							
6							
7							
8							
1							
2							
3							
4							
5							
6							
7							
8							
1							
2							
3							
4							
5							
6							
7							
8							
1							
2							
3							
4							
5							
6							
7							
8							
1							
2							
3							
4							
5							
6							
7							
8							

